

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2023- yil yanvar-sentabr)

	mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	12 802,6	109,5	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	660,5	121,6	5,1
Moliyaviy xizmatlar	2 185,9	109,9	17,1
Transport xizmati	2 354,9	110,7	18,4
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	2 118,6	107,6	16,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	332,5	106,7	2,6
Savdo xizmatlari	4 006,8	107,5	31,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	339,2	105,1	2,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	673,7	135,1	5,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	290,4	103,6	2,3
Ijara va prokat xizmatlari	205,6	88,8	1,6
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	361,9	103,2	2,8
Boshqa shaxsiy xizmatlar	830,5	103,7	6,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	137,9	101,1	1,1
Boshqa turdagi xizmatlar	422,8	106,2	3,3

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (31,3 %), transport xizmatlari (18,4 %) moliyaviy xizmatlar (17,1 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,1 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,6 %) tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida bajarilgan
xizmatlar tarkibi, (% da)**



2023- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 12 802,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 107,5 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 31,3 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 110,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar 109,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 17,1 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 103,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.


Aloqa axborotlashtirish xizmati 121,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 135,1 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi
(jami xajmga nisbatan, % da)




Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2023- yil yanvar-sentabr, mlrd.so'm)



Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2023- yil yanvar-sentabr)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so'm	2022- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	12 802,6	109,5	100,0	4 234,7	107,0
Namangan sh.	5 143,0	111,2	39,9	7 505,9	108,3
Mingbuloq	484,0	108,3	3,8	3 579,8	105,9
Kosonsoy	648,6	107,8	5,1	2 887,8	105,4
Namangan t.	675,3	107,5	5,3	3 555,9	105,0
Norin	568,0	109,9	4,4	3 270,2	107,8
Pop	795,2	110,4	6,3	3 412,9	108,3
To'raqo'rg'on	837,4	108,6	6,6	3 464,8	105,9
Uychi	800,3	106,4	6,3	3 493,4	104,0
Uchqo'rg'on	618,0	109,0	4,9	3 375,1	106,8
Chortoq	695,5	110,6	5,4	3 280,8	108,3
Chust	890,3	105,6	6,9	3 159,5	103,6
Yangiqo'rg'on	647,0	109,5	5,1	2 764,5	107,0

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga




(2023- yil yanvar-sentabr, ming so'm)

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 5 143,0 mlrd. so'm (111,2 %) va Pop tumanida 795,2 mlrd. so'm (110,4 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (7 505,9 ming so'm), Mingbuloq tumanida (3 579,8 ming so'm) va Namangan tumanida (3 555,9 ming so'm) qayd etildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Yuqori o‘shish sur‘atlari ta’lim sohasidagi xizmatlar (135,1 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (109,5 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (106,7 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o‘rinni avtomobil transportida ko‘rsatilgan xizmatlar (90,0 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,4 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo‘yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2023- yil yanvar-sentabr oylarida uning ulushi 76,8 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,7 % ga yetdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida transport turlari bo‘yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste‘mol talabi va savdo aylanmasi o‘smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni qo‘shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo‘yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,5 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo‘shgan xolda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo‘yicha xizmatlar